



Press-tur: 495 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi quyosh elektr stansiyasi qurilishi bilan tanishildi



Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan davlat-xususiy sherikchilik asosida loyiha qiymati 260 mln dollar bo'lgan, 457 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi qurilmoqda. Qurilish ishlariga 2 mingdan ortiq mahalliy aholi vakilari jalb qilingan va loyiha ishga tushgach, 120 ta doimiy ish o'рни yaratiladi.



Bugun Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan mazkur loyihaning qurilishi bilan tanishtirish maqsadida OAV vakillari, jurnalist va blogerlar uchun media-tur tashkil etildi.



Media tadbirda ishtirokchilar pudratchi korxona – Xitoyning CMEC kompaniyasi tomonidan olib borilayotgan qurilish jarayonlari bilan yaqindan tanishishdi va o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javoblar olishdi.

